



LINGVOMADANIYATSHUNOSLIKDA LISONIY SHAXS, BAHO VA QADRIYAT MUAMMOSI

Davronova Ziyodaxon Asqarali qizi

Farg'ona davlat universiteti Lingvistika (ingliz tili) magistranti

G'aniyeva Dildora Azizovna

F.f.d., Ingliz tili kafedrasida dotsenti

Annotatsiya. Maqolada lisoniy shaxs, baho va qadriyat tushunchalari lingvomadaniy jihatdan o'rganiladi va ularga ta'rif beriladi. Asrlar davomida turli millatlarda shakllangan, umummilliy xarakterdagi o'xshatish etalonlar qiyoslab o'rganiladi.

Kalit so'zlar: lisoniy shaxs, milliy mentalitet, semantik xususiyat, aksiologiya, o'xshatish etalonlari, stilistik xususiyat

Xalqning milliy o'ziga xosligi – mentaliteti bu uning madaniyatidir. O'zbekiston milliy ensiklopediyasida *mentalitet* tushunchasi shunday izohlanadi: "Mentalitet (lot. *mentalis* — aqliy) — ayrim kishi yoki ijtimoiy guruhga xos aqliy qobiliyat darajasi, ma'naviy salohiyat. Jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti ularning o'ziga xos tarixiy an'analari, urf-odatlar, diniy e'tiqodini ham qamrab oladi. Har bir millatning mentaliteti uning tarixi, yashab turgan shart-sharoiti, ijtimoiy faolligi va boshqa bir qancha omillar bilan bog'langan bo'ladi"¹³.

Milliy mentalitetning tilda voqelangan shakliga nisbatan *lingvomadaniyat* terminini qo'llash ma'qul ko'rinadi. Lingvomadaniyat lisoniy belgilarda mujassamlangan va lisoniy/nutqiy jarayonda voqelanuvchi madaniyatdir. Milliy mentalitetga xos turg'unlashgan axloq qoidalari, qadriyatlar, ayniqsa, milliy tilning barqaror birliklarida yorqin aks etadi. Zero, barqaror birliklarda asrlar davomida shakllangan, asoslangan, umummilliy xarakterdagi madaniy axborot saqlanadi. Masalan, go'zal ko'zlar o'xshatiladigan etalonlarni qiyoslab ko'raylik: o'zbek tilida *munchoqdek, charosdek, ba'zida osmondek, quralay* (kiyik bolasi) *ko'z*, qozoq tilida *bo'taloq ko'zidek*, qirg'iz tilida *sigir ko'zidek*; rus tilida *qorag'atdek* (kak smorodina), *osmondek* (kak nebo), *tumandek* (kak tuman) *ko'z* o'xshatishlari milliy mentalitetda, bir tomondan, go'zal ko'z haqidagi tasavvurlarning o'ziga xosligini, ikkinchi tomondan esa, etalon vazifasidagi narsa-hodisalarning ahamiyatini ko'rsatadi.

Turg'un o'xshatishlar millatning tafakkuridagi olamning lisoniy manzarasini yaqqol namoyon etadi. Millat lisoniy manzarasidan muqim o'rin olgan turg'un o'xshatishlardagi etalonlar shu millat vakillari uchun alohida ahamiyatlidir. Masalan, turkiylar etnomadaniyatida go'zal yor yuzini oyga qiyoslash turg'unlik kasb etgan. Oyga qiyoslash *oydek, to'lin oydek, o'n to'rt kunlik oydek* o'xshatishlariga, Oygul, Oydin,

¹³ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 томлик. 5-том. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 59.



Oysuluv, Mohichehra kabi qizlar ismiga ham asos bo'lgan. Bunday o'xshatish, masalan, rus etnomadaniyatida tushunarli bo'lsa-da¹⁴, turkiylar lingvomadaniyatidagidek ahamiyatli emas. Bundan tashqari, to'lin oy sovuqlik, mistik tasavvurlar bilan ham bog'lanadi, lekin bu tasavvurlar turkiylar lingvomadaniyati uchun xos emas. Demak, baho ifodalovchi mantiqiy operatsiyalar uchun milliy, madaniy va mental belgilar muhim omildir. Bizning nuqtai nazarimizda *milliy mentalitet millat kognitiv stereotiplari yig'indisidan tarkib topgan olamni qabul qilishning o'ziga xos tarzidir*.

"XX asrda lisoniy shaxs tushunchasi ilk bor L.Vaysgerber va V.V.Vinogradovlar asarlarida kuzatildi. L.Vaysgerber "Milliy til va ruhning vujudga kelishi" nomli monografiyasida tilning umummadaniy boylik ekanligi, o'z lisoniy shaxsi tufayli hech kim til mulkini egallamasligi, aksincha, lisoniy mulk uning til jamiyatiga aloqador bo'lishi asosida o'sib borishini bayon qiladi"¹⁵. "Tilshunoslikka "til shaxsi" kategoriyasining kiritilishi tilshunoslikda shaxs, lisoniy ong, tafakkur, faoliyat, mentallik, madaniyat kabi tushunchalarning yanada faollashishini taqozo etdi"¹⁶. Chunki zamonaviy tilshunoslikda insonga ham til subyekti, ham madaniyat subyekti, ham bilish subyekti sifatida qaraladi.

D.Xudoyberganova "til sohibi" tushunchasi hozirgi vaqtda, asosan, quyidagi ma'nolarda ishlatilayotganini ta'kidlaydi: "a) muayyan tilda nutqiy faoliyatni amalga oshiruvchi, ya'ni nutq tuzish va uni idrok etish qobiliyatiga ega bo'lgan shaxs; b) tildan muloqot vositasi sifatida foydalanuvchi shaxs, kommunikant; v) o'z millatining milliy-madaniy, ma'naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi lug'at tarkibini egallagan, uni namoyon etuvchi shaxs; muayyan til vakili"¹⁷. Anglashiladiki, madaniyat, birinchi navbatda, qadriyatlar tizimi, lisoniy shaxs esa uning aks ettiruvchisidir. Rus tadqiqotchisi S.V.Ivanova ham shaxs shakllanishi jarayoni strukturasi barcha bosqichlari madaniy markerlanganini ta'kidlaydi¹⁸. "Shaxsning qadriyatli qarashlari, motivatsion olami, uning ijtimoiy munosabatlar va me'yorlari tizimi, shuningdek, o'ziga bo'lgan munosabati uning mohiyatini tashkil etadi"¹⁹.

Alohida ta'kidlab o'tish kerakki, dunyoni ko'rish, dunyoni idrok qilish, millat idrok intizomining shakllanishi kognitiv jarayondir. Shunday ekan, lingvomadaniy tahlil predmeti inson bilimlarining tuzilishi va ishlash mexanizmini tavsiflash bo'lgan kognitologiya tamoyilidan uzoqlashmaydi.

Kognitiv tilshunoslik oldiga qo'yilgan vazifalar sirasida konseptosferani tashkil etuvchi universal konseptlar tizimini tavsiflash²⁰ ham tilga olinadi. I.A.Krasnova til va tafakkur tarzining o'zaro munosabati tilda shu til egalari uchun muhim bo'lgan

¹⁴Сабитова З.К. Лингвокультурология. – М.: Флинта: Наука, 2013. – С. 152.

¹⁵Лутфуллаева Д., Худойберганова Д. Тилшуносликда лисоний шахс муаммоси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2017. – № 6. – Б. 40.

¹⁶Лутфуллаева Д., Худойберганова Д. Кўрсатилган мақола. – Б.35.

¹⁷Худойберганова Д. Кўрсатилган диссертация. – Б. 16.

¹⁸Иванова С. В. Ко'rsatilgan manba. – Б.53.

¹⁹Реан А.А. Психология личности. Социализация, поведение, общение. – М.: АСТ, 2007. – С. 13.

²⁰Маслова В. А. Когнитивная лингвистика. – Минск: ТетраСистемс, 2004. – С. 25.



tushunchalarning aks etishida ko'rinishini haqli ravishda ta'kidlaydi²¹. Bunday munosabatdorlik sabab til olamni milliy qadriyatli manzara nuqtai nazaridan aks ettiradi.

N.F.Alefirenko lingvomadaniyatshunoslik muammolarini qadriyat (ценность), baho (оценка) va mazmun (смысл) kategoriyalarisiz o'rganish mumkin emasligini aksioma hisoblaydi²². L.Novikovning "Rus tili semantikasi"dagi e'tirofi qadriyat, baho va semantikaning o'zaro shartlanganligini ko'rsatadi: "Narsalar o'rtasidagi mavjud obyektiv farqlar til semantikasida lisoniy jamoa tomonidan qabul qilingan baho, standartlar nuqtai nazaridan o'ziga mos spetsifik ifodaga ega bo'ladi"²³.

Demak, til avloddan avlodga madaniyat me'yorlari, madaniy qadriyatlarni yetkazadi. Shu sababli qadriyat va baho tushunchalariga alohida to'xtalish lozim.

Lingvomadaniyatshunoslikda milliy-madaniy konnotatsiya, qadriyatli mazmun masalasi muhim ahamiyatga ega. Falsafada qadriyat voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan falsafiy-sotsiologik va aksiologik tushunchadir. Jamiyat, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsa, hodisa va voqealar: erkinlik, ezgulik, tenglik, tinchlik, haqiqat, ma'rifat, madaniyat, moddiy va ma'naviy boyliklar, obida-yodgorliklar, go'zallik, axloqiy xislat hamda fazilatlar, an'ana, urf-odat, udum va boshqalar qadriyat hisoblanadi²⁴.

XIX asrda falsafa bag'rida qadriyatlar to'g'risida alohida fan – aksiologiya (lot. *axia* — qadriyat, *logos* — ta'limot) vujudga keldi. Keyinchalik V.Vindelband va G.Rikkertlar ilk bor qadriyatlar nazariyasini yaratib, unda qadriyatlarni madaniyat fenomeni sifatida ta'rifladilar²⁵.

Turg'un o'xshatishlar tilning antropotsentrik tabiatini yorqin namoyon etadi. Ya'ni qiyoslash amaliyotida inson baho obyekt bo'lganda ham, baho subyekt bo'lganda ham mezon uning o'zidir. Inson baho obyekt bo'lganda markazda inson turishi shubhasiz. Ammo predmetlar olami substansiyalariga baho berayotganda ham inson (uning qiziqishlari, ehtiyojlari, manfaatlari) asosiy mezon vazifasini o'taydi. Shu sabab o'xshatishlarni shaxsdan hamda til jamoasidan ayro tahlil etib bo'lmaydi. Masalan, o'zbek tilida yosh bolalar, mashina, suv, soy kabi narsalar harakatlarini toychoqning irg'ishlashigao'xshatish²⁶ mumkin hamda bunday o'xshatishning muallifi millat (inson) ekan, demak, u shu harakatlarni toychoqning harakatiga qiyoslash uchun asos bor, deb baholaydi. Binobarin, turmush sharoitlari, madaniyatda turg'unlashgan me'yorlar tufayli narsa-hodisalarga turlicha etalonlar tanlanadi. Masalan, beozorlik xususiyati uchun etalon sifatida rus lingvomadaniyatida *buzoqcha*

²¹ Краснова И. А. Концепт "честь" в русской языковой картине мира. – Канада, 2010. – С. 21.

²² Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. – М.: Флинта, 2014. – С. 99.

²³ Новиков Л.А. Семантика русского языка. – М.: Высшая школа, 1982. – С. 73.

²⁴ Фалсафа. Комусий луғат. – Тошкент: Шарк, 2004. – Б. 476.

²⁵ Солонин Ю.Н., Каган М.С. Культурология: Учебник. – М.: Высшее образование, 2007. – С. 135.

²⁶ Махмудов Н., Худойберганава Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – Б. 216.



(*мелёнок*), *go'dak* (*ребёнок*), *bola* (*дутья*) kabilar, o'zbek lingvomadaniyatida esa *musicha*, *go'dak* va *farishta* turg'unlashgan.

Umuman, inson olamni idrok etar ekan, o'zi uchun muhim bo'lgan qadriyatlar tizimini shakllantirib boradi. Qaysidir millat dengiz va u bilan bog'liq hodisalarga katta e'tibor qaratsa, boshqasi sahro manzaralarini keng tasvirlaydi, kimdadir suhbatdoshga tik boqish muloqotning muhim sharti bo'lsa, kimdadir bu noo'rin harakat sifatida baholanadi.

Xullas, olamni idrok etish va anglashda shaxs baho subyektiga aylanadi. Baho munosabatida subyektning qiziqishlari, ehtiyojlari hamda obyektning barcha xususiyatlari jamlanadi. Baho – nutq predmetiga so'zlovchining munosabatidir.

Madaniyat, birinchi navbatda, qadriyatli mazmunga ega, u yaxshi va yomon, to'g'ri va nojo'ya haqidagi tasavvurlarni o'zida aks ettirgan tizimdir. Bunda aksqadriyat tizim strukturasi o'rin olishi tabiiy. T.B.Radbil bu haqda shunday deydi: "Insonning olamga qadriyatli yondashuvining o'ziga xosligi uning uchun nimaningdir ahamiyatli yoki ahamiyatsizligi bilan belgilanadi. Ahamiyatli narsa esa "plyus" belgisi bilan ham, "minus" belgisi bilan ham bo'lishi mumkin. Shunda biz "minus" belgisi – aksqadriyat bilan ish ko'rayotgan bo'lamiz. Ular ham ongimizda markerlangan. Boshqacha aytganda, "yaxshi" va "yomon" qadriyatli "nol"ga qarama-qarshi qo'yilganidir. Shu bois qadriyatlar shkalasida uchta a'zo chiziqli emas, pog'onaviy tarzda joylashib, ierarxiyani hosil qiladi"²⁷.

Xulosa

Qadriyatlar xususida falsafa hamda madaniyat nazariyasiga oid manbalarda bildirilgan qarashlarni o'rganish quyidagi xulosalarga olib keladi:

1. Qadriyat tushunchasining shakllanishi uchun asos ijtimoiy bahodir. Qadriyat tushunchasi baho tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, baho munosabatisiz qadriyatning bo'lishi mumkin emas. "Lisoniy baho kategoriyasini qadriyatlar tizimini tilda aks ettirishning asosiy usuli, nutqiy aloqaning ajralmas qismi sifatida tavsiflash mumkin"²⁸.

2. Qadriyat – ideal hodisa, shu lingvomadaniyatda katta e'tiborga sazovorligi bilan ajralib turuvchi tushunchalarning barchasidir. Qadriyat sifatida baholangan narsa-hodisalar o'zining ziddi – aksqadriyatga ega bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 томлик. 5-том. – Тошкент
2. Сабитова З.К. Лингвокультурология. – М.: Флинта: Наука, 2013. – С. 152.
3. Лутфуллаева Д., Худойбергана Д. Тилшуносликда лисоний шахс муаммоси//Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент,

²⁷Радбил Т.Б. Основы изучения языкового менталитета. – М.: Флинта, «Наука», 2010. – С. 227.

²⁸Махмудов Н., Худойбергана Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – Б. 13.



4. Реан А.А. Психология личности. Социализация, поведение, общение. – М.: АСТ, 2007. – С. 13.
5. Маслова В. А. Когнитивная лингвистика. – Минск: ТетраСистемс, 2004. – С. 25.
6. Краснова И. А. Концепт “честь” в русской языковой картине мира. – Канада, 2010. – С. 21.
7. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. – М.: Флинта, 2014. –С. 99.
8. Новиков Л.А. Семантика русского языка. – М.: Высшая школа, 1982.